Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 1
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Ulug'bek Abduxalilovich Azimov*
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti dotsenti, f.f.b.f.d.,(PhD)
✉ azimovulugbek413@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, qadriyatlar tizimi va turlarining jamiyat, inson, ayniqsa yosh avlod tarbiyasidagi hayotiy ahamiyati, aksiologik funksiyalar, axloqiy tarbiyaning shaxsda ijobiy xulq-atvor me'yorlarini, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillarni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz mezon ekanligi, Sharq va G'arb falsafasi ana'nalarida qadriyatlarning o'rni, shuningdek, inson faoliyatining ijobiy fazilatlari shakllanishida qadriyatlar birinchi galda tarbiyaviy qurol vazifasini bajarib kelayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar

yoshlar, ma'naviy kamolot, axloq, qadriyat, axloqiy qadriyatlar, mailliy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya, aksiologik ong.

DOI: 10.5281/zenodo.21743501

KIRISH

Aksiologiya qadriyatlar va qadriyat sistemalarining jamiyat hamda inson hayoti uchun ahamiyatini, ularning ijtimoiy funktsiyalarini ham o'rganadi. Ma'lumki, qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Ular gohida ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatiga undasa, gohida ma'naviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydi, faoliyatlarini boshqarib yoki yo'lga solib turadi.

Qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati kundan kun o'sib bormoqda, ularning mohiyatini bilish, e'tiqod, ixlos qo'yish kabilar yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, birdamlik va hamjihatlik tuyg'ularini shakllantirishga, insonparvarlik fazilatlarini kamol toptirishga zamin yaratadi.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyot yo'lida vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati mamlakat hayotida sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarning o'zagini tashkil etadi. Vatanparvarlik – o'z Vatanini sevish, uning taraqqiyot yo'li va istiqlolini anglab olish, davlat manfaatlarini himoya qilish asosida hamma sohalarda fidoyilik namunalarini ko'rsatish bilan birgalikda xalqimizning boy ma'naviy merosini ezozlash va qadrlashdir.

Asosiy qism. Axloqiy tarbiya borasida ham milliy qadriyatlarimiz nihoyatda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, insonning ma'naviy-axloqiy kamolotiga bog'liqdir. Axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy hayotga ongli ravishda moslashuvi, jamiyat qoidalariga hurmat bilan qarashi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yosh avlod ongiga singdirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya - bu shaxsda ijobiy xulq-atvor me'yorlarini, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillarni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya orqali insonda halollik, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mas'uliyat, kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlik kabi fazilatlar rivojlanadi.

Axloqiy tarbiya oilada boshlanib, maktab, jamoatchilik va jamiyat muhitida davom etadi. Bu jarayonda ta’lim-tarbiya muassasalari, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy muhit muhim rol o‘ynaydi.

Milliy qadriyatlar - bu muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan urf-odatlari, an’analari, madaniyati, tili, diniy va ma’naviy qarashlarining majmuidir. Ular millatning o‘ziga xosligini belgilaydi va jamiyatning ma’naviy poydevorini tashkil etadi.

Yosh avlodni ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va jamiyatga foydali insonlar etib tarbiyalashda axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida milliy an’analar, tarixiy meros, buyuk ajdodlarimizning ma’naviy qarashlari yoshlar ongiga singdirilishi zarur.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar va axborot oqimi kuchaygan bir davrda yoshlarni turli salbiy ta’sirlardan himoya qilishda milliy qadriyatlarga asoslangan axloqiy tarbiya muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa ularning mustahkam e’tiqodli, irodali va ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishiga yordam beradi. Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Milliy qadriyatlarga asoslangan axloqiy tarbiya yosh avlodni ma’naviy yetuk, vatanparvar va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni chuqur o‘rganish va ulardan samarali foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xalqimiz o‘rtasida bola tarbiyasida o‘ziga xos tajriba usullari shakllangan bo‘lib, bu tajriba asrlar davomida sinovdan o‘tib, milliy qadriyatga aylanib ketgan. Qadriyatlar bolalarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, xalollik, ota-onani, kattalarni hurmat kilish kabi hislarni tarbiyalaydi. Shu sababli ham o‘zbek yoshlari o‘zining tarbiyasi, mehnatsevarligi, halolligi bilan ajralib turadi.

XXI asrda insoniyat Sharq falsafasi an’analariga, qadriyatlariga ko‘r-ko‘rona qaytishi shart emas. Gap falsafasi umuminsoniy qadriyat ekanini e’tirof etib, Sharq falsafasi an’analari va qadriyatlaridan kengroq, oqilona foydalanish ustida bormoqda.[1] Qadriyatlarga xolisona yondashish, ulardan ijtimoiy, tarbiyaviy masalalarni hal etishda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalqining tarbiya tizimida tarixan tarkib topgan o‘ziga xos xususiyatlar tufayli yoshlarimiz boshqa millat yoshlaridan ajralib turadi. Masalan, ota-ona farzandining biror-bir sharmandali xatti-harakatidan uyalib, “Meni isnodga qo‘yding-ku, jon bolam, endi men el-yurt yuziga qanday qarayman, mahalladan chiqib ketmasam bo‘lmaydi” degandayoq farzand bu so‘zlar zamirida o‘z obro‘yi, oila obro‘si saqlanayotganligini darrov tushunadi va millat sha’nini himoya qiladigan muqaddas tushuncha – oriyatlilikni anglab etadi. Demak, nomuslilik, oriyatlilik ham eng muhim qadriyatlardan biridir.

Umuman olganda, inson faoliyatining ijobiy fazilatlari shakllanishida qadriyatlar birinchi galda tarbiyaviy qurol vazifasini bajaradi. Mazkur jarayonning namoyon bo‘lishi uchun mamlakatimizda qulay sharoitlar yaratilmoqda, natijada aholi o‘rtasidagi g‘oyaviy va mafkuraviy ahillikning mustahkamlanishi o‘zaro tushunish, bir-birining ishiga, o‘qishiga, ilmiy tadqiqot olib borishiga, boshqaruv masalalariga, o‘sib borayotgan avlodni tarbiya qilish va umuman, turli-tuman ijtimoiy-siyosiy harakatiga ko‘maklashishida qadriyatlarning mustahkam tizimi shakllanmoqda.

Istiqlol milliy-ma’naviy tushunchalarning hayotimizga kirib kelishiga zamin yaratib berdi. Endilikda “qadriyat”, “mustaqillik”, “istiqlol”, “milliy iftixor” kabi tushunchalar o‘zining asl mazmuniga ega bo‘lmoqda.[2:B-9]

Mazkur atamalarning hayotimizga kirib kelishi va qisqa vaqt ichida teran ildiz otib ketishida yurtimizning turli sohadagi yutuqlari amaliy ahamiyatga ega.

Mustaqil O‘zbekistonda olib borilayotgan oqilona siyosat tufayli respublika o‘zining iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda ma’naviy hayotda yuksalib borayotgan milliy madaniyatimiz, urf-odat, an’analar kabi qadriyatlari bilan ham xalqaro maydonda munosib o‘rinlarni egallab bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Xalqimiz sarchashmalarining ko‘zlari qaytadan ochilganligi, jahon madaniyati yutuqlariga zo‘r hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma’naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o‘z o‘tmishiga, olijanob milliy va diniy an’analariga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog‘da hozirgi zamon jahon tsivilizatsiyasi va ularga oshno bo‘lish zarurligi ravshan anglab etilganligi – mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o‘zligini an-

glashini oshirish, aholining siyosiy etukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi”[3:B-140], – deb ta’kidlagan edi.

Shunday qilib, mustaqillik “qadriyatlar”, “milliy istiqlol”, “milliy iftixor”, “milliy g‘urur”, “milliy ong” kabi tushunchalarning ijtimoiy-siyosiy va kundalik hayotimizdagi asosiy ahamiyati va o‘rnini qayta tiklash imkonini berish bilan birga, inson faoliyatiga keng yo‘l ochib berdi.

Dunyoda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning qaror topishini uning talablariga mos keluvchi aksiologik ongsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shu bois yoshlar aksiologik ongini shakllantirish muammosi ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Dunyoning demokratik davlatlarida jamiyat hayotining demokratlashuvi, demokratik qadriyatlarning qaror topishi, modernizatsiya sharoitida aksiologik ong muammosi nazariy tafakkurning ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Rivojlangan davlatlarning demokratlashtirish amaliyoti aksiologik ongni, kishilar tafakkurini o‘zgartirmay turib jamiyat hayotini sifat jihatdan yangilash mumkin emasligini tasdiqlaydi. Kishilar ongu shuurini, tafakkur tarzini, ruhiy sifatlarini o‘zgartirish muammosi bugun butunjahon progressiv hamjamiyatini o‘ylantirmoqda. Shu bois so‘nggi o‘n yillikda demokratik taraqqiyotning tashqi atributlari bilan bir qatorda jamiyat a’zolarining ichki (mental) xususiyatlarini ham o‘rganishga qiziqish tobora ortmoqda.

“Aksiologik ong-axloqiy-ma’naviy tarzda o‘z hayotiy faoliyati sohasi sub’ektlarini aniqlashga imkon beruvchi ob’ektiv borliqni aks ettirish shakli; ma’naviy qadriyatlar dunyosi sifatida borliqni aks ettirish asosida insonda dunyoni va o‘zining shaxsiy dunyosini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi.”[4:B-12]

XULOSA

O‘zbekistonda jamiyatni demokratik yangilash jarayonida inson, ayniqsa, yoshlarning aksiologik ongini g‘oyat murakkab va ziddiyatli fenomen sifatida nazariy tahlil qilish ob’ektiv tarzda yangicha yondashuvni taqozo qiladi. Bunday yangicha yondashuv esa jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonida milliy tarkibiy qism – milliy mentalitetni, albatta, hisobga olish zaruratini tug‘diradi. Zero, jamiyatni demokratlashtirish darajasi va sur’atlari funktsional tarzda demokratik siyosiy ongni shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi milliy mentalitet va uning tabiati bilan funktsional ravishda bog‘liqdir. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda shakllanayotgan yangi ijtimoiy reallik – jamiyatni demokratlashtirish sharoitida jamoaviylik va paternalizmning ayrim xususiyatlarining O‘zbekiston yoshlarining siyosiy ongini shakllantirish jarayoniga ta’sirini tadqiq qilish hayotiy dolzarb muammoga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Юсупов.Э. Шарқ фалсафаси ва инсонпарварлик. «Жаҳон адабиёти» журнали, 2003 йил, 10-сон

2. Тўланов.Ж. Қадриятлар фалсафаси.-Тошкент.: Ўзбекистон. 1998,-Б.9.

3. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т.: Ўзбекистон. 1995, -Б.140.

4. Mardonov Sh, Xodjayev B, Taylanova Sh, Xojimuxamedova D. Pedagogik aksiologiya. Tosh. 2013. 12-bet